

“TASDIQLAYMAN”
Raqamli texnologiyalar vazirining
birinchi o‘rinbosari O.Pekos



“15”-iyul 2024-yil

Raqamli texnologiyalar vazirligining 2024-yilning ikkinchi yarim yilli uchun mo‘ljallangan
ISH REJASI

T/r	Mas’ul tarkibiy bo‘linma	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Bajarish muddati
1.	Elektron hukumatni rivojlantirish boshqarmasi (A.Sultonov)	<p>Mahalla faoliyatini raqamlashtirish.</p> <p>Amalga oshirish mexanizmi: Hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli va yoshlar yetakchisi tomonidan alohida yuritilayotgan tarqoq platformalar o‘rniga Mahallaning yagona platformasini joriy qilish. Bunda: platformaga mahalla aholisi salomatligi ko‘rsatkichlarini, oilaviy shifokor va hamshiralar tomonidan joylarda ko‘rsatilayotgan patronaj xizmatlari ma’lumotlarini kiritish; “Temir daftar”, “Yoshlar daftari” va “Ayollar daftari” platformalarini o‘zaro integratsiya qilish; platformani Personallashtirish agentligi, Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Kadastr agentligi, Soliq qo‘mitasi, Ichki ishlar vazirligi, ta’lim vazirliklari bazalari bilan integratsiya qilish.</p>	2024-yil III chorak
2.	Telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish boshqarmasi (M.Yuldashev)	<p>Aholining keng qatlamiga huquqiy axborotlarni tez va qulay yetkazishning samarali usullarini joriy etish.</p> <p>Amalga oshirish mexanizmi: Aholining keng qatlamiga taalluqli dolzarb qonunchilik hujjatlari va boshqa huquqiy axborotlar to‘g‘risida aloqa operatorlari tomonidan abonentlarga “SMS” xabarnomalar yuborish tizimini yo‘lga qo‘yish.</p>	2024-yil III chorak

3.	Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish boshqarmasi (A.Rizayev)	Sun'iy intellekt ishlanmalari asosidagi startaplarni va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash dasturini ishlab chiqish.	2024-yil III chorak
4.	Elektron hukumatni rivojlantirish boshqarmasi (A.Sultonov)	Yagona hisobotlar tizimini joriy etish. Amalga oshirish mexanizmi: Yagona hisobotlar tizimiga o'tishni mavjud resurslardan foydalangan holda (integratsiya asosida) joriy qilish imkoniyatlarini tahlil qilish.	2024-yil III chorak
5.	Elektron hukumatni rivojlantirish boshqarmasi (A.Sultonov)	Rasmiy daromadga ega bo'lmagan fuqarolarga kredit ajratish amaliyotini takomillashtirish, shuningdek, kredit byurolarining "Elektron hukumat" ma'lumotlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish. Amalga oshirish mexanizmi: "Elektron hukumat" tizimining raqamli ma'lumotlar platformasi orqali kommunal tashkilotlar tomonidan taqdim etib kelinayotgan kommunal to'lovlar bo'yicha mavjud qarzdorlik ma'lumotlari tarkibiga oxirgi 12 oylik to'lovlar to'g'risidagi ma'lumotlarni kiritish amaliyotini joriy qilish.	2024-yil III chorak
6.	Elektron hukumatni rivojlantirish boshqarmasi (A.Sultonov)	Davlat tashkilotlari tomonidan aholiga raqamli xizmatlarni ko'rsatish jarayonini doimiy monitoring qilish. Amalga oshirish mexanizmi Xatlov natijalariga ko'ra, raqamli xizmatlarni ko'rsatish jarayonini o'rganish, bunda quyidagilarga e'tibor qaratish: raqamli xizmatlarni foydalanuvchi toifalariga ko'ra bir nechta tilda olish imkoniyati yaratilganligi; raqamli xizmatlar pasporti shakllantirilgani, ariza to'ldirish jarayoni sodda, qulay shaklga keltirilgani; foydalanuvchini identifikatsiya qilish imkoniyati mavjudligi; raqamli xizmatlar ko'rsatish sifatini baholash va takliflar kiritish imkoniyati yaratilgani; raqamli xizmatlar ko'rsatilishining har bir bosqichida arizaning ko'rib chiqilishini kuzatib borish va undagi uzilishlarni nazorat qilish imkoniyati yaratilganligi; raqamli xizmat bo'yicha onlayn to'lovni amalga oshirish imkoniyati yaratilganligi	2024-yil III chorak

7.	Axborot xavfsizligi bo'limi (A.Ismailov)	Ishonchli uchinchi taraf" tamoyili asosida O'zbekiston Respublikasi hududida berilgan raqamli imzo bilan tasdiqlangan raqamli hujjatlarning haqiqiylikini tasdiqlash imkonini beruvchi "Yagona raqamli hujjatlar" ma'lumotlar bazasini yuritish. Bunda:"Yagona raqamli hujjatlar" ma'lumotlar bazasini joriy etish.	2024-yil III chorak
8.	Raqamli ta'limni rivojlantirish boshqarmasi (S.Butanov)	"IT-shaharcha"larda amalga oshiriladigan ta'lim jarayoni bo'yicha o'quv reja va dasturlarini ishlab chiqish.	2024-yil III chorak
9.	Raqamli ta'limni rivojlantirish boshqarmasi (S.Butanov)	Toshkent moliya instituti va Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti talabalari uchun universal bank kartasini yaratish maqsadida "Talaba kartasi" tajriba sinov loyihasini amalga oshirish.	2024-yil III chorak
10.	Raqamli ta'limni rivojlantirish boshqarmasi (S.Butanov)	Raqamli texnologiyalar vazirligi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan birgalikda 2024/2025 o'quv yiliga qadar IT-yo'nalishida tahsil oluvchi iqtidorli talabalarni yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida "Muhammad al-Xorazmiy" Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan davlat stipendiyasini ta'xis etish yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish.	2024-yil III chorak
11.	Elektron hukumatni rivojlantirish boshqarmasi (A.Sultonov)	Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidan (keyingi o'rinlarda – Yagona portal) foydalanish qulayligi hamda aholi va tadbirkorlik sub'ektlariga xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish. Amalga oshirish mexanizmi: joriy etilgan chat dasturlarini takomillashtirish hamda sun'iy intellekt asosida ishlaydigan "chat-bot" funksiyasini joriy etish.	2024-yil III chorak
12.	Elektron hukumatni rivojlantirish boshqarmasi (A.Sultonov)	Yagona elektron tibbiyot tarmog'ini shakllantirishni davom ettirish, raqamli texnologiyalar joriy etilgan tibbiyot muassasalari ulushini 70 foizga yetkazish. Amalga oshirish mexanizmi: Loyiha xarajat manbalarini aniqlash, 3 600 dan ortiq texnik qurilma va litsenziyalar xarid qilish.	2024-yil IV chorak
13.	Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish boshqarmasi (A.Rizayev)	eksport hajmi umumiy daromadining 50 foizdan yuqori bo'lgan IT-Park rezidentlari uchun qonunchilikda nazarda tutilgan soliq imtiyozlari va preferensiyalar muddatini 2040 yilgacha uzaytirish bo'yicha takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2024-yil IV chorak

14.	Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish boshqarmasi (A.Rizayev)	IT-Park faoliyatini yanada takomillashtirish, uning yangi ustuvor vazifalarini belgilash orqali transformatsiya qilish bo'yicha takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2024-yil IV chorak
15.	Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish boshqarmasi (A.Rizayev)	IT-Park rezidentlari loyihalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida, ularni chet el akselerator dasturlarida qatnashish xarajatlari miqdorini yuz foizgacha qoplash bo'yicha takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2024-yil IV chorak
16.	Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish boshqarmasi (A.Rizayev)	Huquqiy eksperimentning dastlabki natijasini inobatga olgan holda "Raqamli texnologiyalar xalqaro markazi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2024-yil IV chorak
17.	Investitsiyalarni jalb qilish bo'limi (D.Boltaev)	Raqamli texnologiyalar vazirligi 2024-yilda respublikada raqamli infratuzilmani rivojlantirish uchun 600 mln dollar, jumladan 300 mln dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlarni jalb qilish choralari ko'rish.	2024-yil IV chorak
18.	Telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish boshqarmasi (M.Yuldashev)	Toshkent shahrida "112" Yagona dispetcherlik xizmatini ishlab chiqish. Amalga oshirish mexanizmi: Apparat-dasturiy vositalarni ishlab chiqarish va yetkazib berish.	2024-yil IV chorak
19.	Telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish boshqarmasi (M.Yuldashev)	Toshkent shahrida "112" Yagona dispetcherlik xizmatini ishlab chiqish. Amalga oshirish mexanizmi: Bosqichma-bosqich ishga tushirish, shoshilinch operativ xizmatlar va "Raqamli Toshkent" tizimi bilan integratsiyalashtirish.	2024-yil IV chorak
20.	Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish boshqarmasi (A.Rizayev)	Raqamli texnologiyalarni rivojlantirgan holda mamlakatni mintaqaviy "IT-HUB"ga aylantirish IT-Park rezidentlari sonini 2000 taga yetkazish	2024-yil IV chorak
21.	Raqamli ta'limni rivojlantirish boshqarmasi (S.Butanov)	Mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan birgalikda tomonidan mahalliy budjet mablag'lari hisobidan "Bir million dasturchi" loyihasi doirasida eng yaxshi natija ko'rsatgan yoshlar va ishtirokchilarni munosib rag'batlantirib borish.	2024-yil IV chorak
22.	Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish boshqarmasi (A.Rizayev)	Raqamli texnologiyalarni rivojlantirgan holda mamlakatni mintaqaviy "IT-HUB"ga aylantirish IT xizmatlar va dasturiy mahsulotlar eksporti hajmini 1 mlrd. dollarga yetkazish.	2024-yil IV chorak

23.	Telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish boshqarmasi (M.Yuldashev)	Optik tolali aloqa liniyalarini 4 861 kmga kengaytirish.	2024-yil IV chorak
24.	Telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish boshqarmasi (M.Yuldashev)	Keng polosali ulanish tarmoqlarini 48,7 ming portga kengaytirish.	2024-yil IV chorak
25.	Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish boshqarmasi (A.Rizayev)	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash orqali viloyatning Shahrisabz shahri, Kitob hamda Ko'kdala tumanlarida masofaviy xizmatlarni ko'rsatish va eksport (AyTi-outsorsing) markazlarini tashkil etish.	2024-yil IV chorak
26.	Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish boshqarmasi (A.Rizayev)	Hududlarda raqamli industriyani yanada rivojlantirish, chet el kompaniyalarini jalb qilish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish orqali ularning sonini oshirish maqsadida chet el biznesini mahalliyashtirish jarayonlarini maksimal darajada soddalashtirishni nazarda tutuvchi "Zero Risk" dasturini tashabbus sifatida amalga oshirish.	2024-yil IV chorak
27.	Telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish boshqarmasi (M.Yuldashev)	Internet tarmog'idan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash. Bunda, xalqaro internet tarmog'iga ulanish tezligini 4 200 Gbit/s ga yetkazish.	2024-yil IV chorak
28.	Elektron hukumatni rivojlantirish boshqarmasi (A.Sultonov)	Elektron xizmatlarni ko'paytirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqib, Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2024-yil IV chorak
29.	Telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish boshqarmasi (M.Yuldashev)	Magistral telekommunikatsiya tarmog'i va aholi yashash maskanlarida 30 ming km optik tolali aloqa liniyalari qurish orqali ularning umumiy uzunligini 260 ming kilometr ga yetkazish.	2024-yil IV chorak
30.	Telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish boshqarmasi (M.Yuldashev)	Aholi maskanlarini yuqori tezlikdagi keng polosali simli internet bilan ta'minlash darajasini 90 foizga yetkazish.	2024-yil IV chorak
31.	Telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish boshqarmasi (M.Yuldashev)	Xalqaro ahamiyatga ega avtomagistral va temir yo'llarning mobil internet bilan qamrov darajasini 90 foizgacha yetkazish.	2024-yil IV chorak
32.	Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish boshqarmasi (A.Rizayev)	IT-park eksport qiluvchi rezidentlari sonini 200 taga oshirish, shu jumladan xorijiy kapital ishtirokidagi kompaniyalarni 30 taga ko'paytirish.	2024-yil IV chorak

33.	Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish boshqarmasi (A.Rizayev)	Kompyuter dasturlash va autsorsing xizmatlari hajmini 10 trln so‘mga va ularning eksporti hajmini 800 mln dollarga yetkazish.	2024-yil IV chorak
34.	Investitsiyalarni jalb qilish bo‘limi (D.Boltaev), Raqamli ta’limni rivojlantirish boshqarmasi (S.Butanov)	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va Vazirlar Kengashi Raislari, viloyatlar hamda Toshkent shahar hokimlari bilan birgalikda 2024-yilda IT-xizmatlar eksportini 1 mlrd dollarga yetkazish va qo‘shimcha 70 ming nafar yoshlarni band qilish choralari ko‘rish.	2024-yil IV chorak
35.	Telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish boshqarmasi (M.Yuldashev)	Raqamli texnologiyalarni rivojlantirgan holda mamlakatni mintaqaviy “IT-HUB”ga aylantirish Internet xizmatining kichik tezlikdagi tarif rejasi tezligini 10 barobar oshirish.	2024-yil IV chorak
36.	Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish boshqarmasi (A.Rizayev)	Raqamli texnologiyalarni rivojlantirgan holda mamlakatni mintaqaviy “IT-HUB”ga aylantirish IT sohasida yaratilgan ish o‘rinlari sonini 34 ming nafarga yetkazish	2024-yil IV chorak
37.	Telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish boshqarmasi (M.Yuldashev)	Turistik ob‘ektlarda mobil, Internet va Wi-Fi aloqa tizimini o‘rnatish va sifatini yaxshilash.	2024-yil IV chorak
38.	Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish boshqarmasi (A.Rizayev)	Raqamli texnologiyalarni rivojlantirgan holda mamlakatni mintaqaviy “IT-HUB”ga aylantirish IT-Parkda xorijiy kompaniyalar uchun “Raqamli texnologiyalar xalqaro markazi”ni tashkil qilish orqali xorijiy kompaniyalar vakolatxonalari (ofislari) sonini 300 taga yetkazish.	2024-yil IV chorak
39.	Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish boshqarmasi (A.Rizayev)	Raqamli texnologiyalarni rivojlantirgan holda mamlakatni mintaqaviy “IT-HUB”ga aylantirish Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidagi xizmatlar va servislar sonini 600 taga yetkazish.	2024-yil IV chorak
40.	Telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish boshqarmasi (M.Yuldashev)	Raqamli texnologiyalarni rivojlantirgan holda mamlakatni mintaqaviy “IT-HUB”ga aylantirish Xalqaro ahamiyatga ega avtomagistral yo‘llarnining 90 foizini to‘liq mobil Internet bilan ta‘minlash.	2024-yil IV chorak
41.	Sun‘iy intellektni rivojlantirish departamenti (lavozimi bo‘yicha)	Biznes-inkubatorlarni yaratish va rivojlantirish uchun Yevropa Ittifoqidan moliyaviy ko‘mak va ekspertlarni jalb qilish.	2024-yil IV chorak
42.	Raqamli ta’limni rivojlantirish boshqarmasi (S.Butanov)	Yoshlar o‘rtasida IT sohasini yanada ommalashtirish hamda sohada xizmatlar eksportini oshirish IT sohasida yoshlarni ish bilan ta‘minlash, maktab o‘quvchilarini xalqaro IT-bozorida talab yuqori bo‘lgan kasblarga o‘rgatish (50 ming nafar).	2024-yil IV chorak

43.	Elektron hukumatni rivojlantirish boshqarmasi (A.Sultonov)	Samarqand viloyati hokimligi bilan birgalikda joriy yil yakuniga qadar Samarqand viloyatida fazoviy ma'lumotlarni shakllantirish va tahlil qilishni ta'minlovchi "Raqamli Samarqand" geografik axborot-tahliliy geoportalini joriy etish.	2024-yil IV chorak
44.	Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish boshqarmasi (A.Rizayev)	2024-yil dekabr oyiga qadar mahalliy hokimliklar bilan birgalikda "Muhammad al-Xorazmiy vorislari" loyihasi doirasida amalga oshirilgan ishlarning samaradorligini o'rgangan holda, bosqichma-bosqich mazkur loyihani boshqa hududlarda ham joriy etish yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish.	2024-yil IV chorak
45.	Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish boshqarmasi (A.Rizayev)	Yetkazib berilgan elektr energiyasi hisobini yuritish uchun yangi billing tizimini to'liq amaliyotga joriy etish.	2024-yil IV chorak
46.	Telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish boshqarmasi (M.Yuldashev)	100 Petabayt sig'imli ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash markazlarini (Data-Center) yaratish.	2024-yil IV chorak
47.	Elektron hukumatni rivojlantirish boshqarmasi (A.Sultonov)	Kompyuter bilan ishlash uchun o'zbek tilidagi ovoqli interfeysni ishlab chiqish.	2024-yil IV chorak
48.	Elektron hukumatni rivojlantirish boshqarmasi (A.Sultonov)	Shaxsning biometrik ma'lumotlarini (nutq, tasvir, video) aniqlashning sun'iy intellekt texnologiyalariga asoslangan tizimini yaratish.	2024-yil IV chorak
49.	Telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish boshqarmasi (M.Yuldashev)	O'zbekiston Respublikasi ilmiy-texnologik sun'iy yo'ldoshlari milliy guruhini tashkil etish yoki mavjud sun'iy yo'ldoshlar guruhlariga qo'shilish to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish.	2024-yil IV chorak
50.	Elektron hukumatni rivojlantirish boshqarmasi (A.Sultonov)	Aholi va tadbirkorlik sub'ektlariga ko'rsatilayotgan raqamli xizmatlarni Yagona portalda (my.gov.uz) jamlash va ularning umumiy sonini 700 taga yetkazish.	2024-yil IV chorak
51.	Elektron hukumatni rivojlantirish boshqarmasi (A.Sultonov)	Yagona portalda (my.gov.uz) taqdim etilayotgan xizmatlarning avtomatlashganlik darajasini 65 foizga yetkazish.	2024-yil IV chorak
52.	Elektron hukumatni rivojlantirish boshqarmasi (A.Sultonov)	Yagona portalda joriy etilgan raqamli xizmatlar va servislarning kamida 75 foizi Yagona portal mobil ilovasida ko'rsatilishini ta'minlash.	2024-yil IV chorak
53.	Sun'iy intellektni rivojlantirish departamenti (lavozimi bo'yicha)	Svetoforlar bilan tartibga solinmagan piyodalar o'tish joylarida ishtirokchilar xavfsizligini ta'minlash va yo'l harakati qoidalariga rioya etilishini nazorat qilishning yaxlit intellektual tizimning dasturiy ta'minotini ishlab chiqish.	2024-yil IV chorak

54.	Sun'iy intellektni rivojlantirish departamenti (<i>lavozimi bo'yicha</i>)	Tirik tizimlar regulyatorikasi matematik modellari asosida "Salomatlik regulyatorikasi" apparat-dasturiy majmuini ishlab chiqish.	2024-yil IV chorak
55.	Sun'iy intellektni rivojlantirish departamenti (<i>lavozimi bo'yicha</i>)	MSKT ma'lumotlari asosida inson organlarining 3D modellarini yaratish uchun intellektual elektron platforma yaratish.	2024-yil IV chorak
56.	Raqamli ta'limni rivojlantirish boshqarmasi (<i>S.Butanov</i>)	Intensiv texnologiyada raqamli iqtisodiyotdan foydalanib polikultura asosida baliq yetishtirish.	2024-yil IV chorak
57.	Sun'iy intellektni rivojlantirish departamenti (<i>lavozimi bo'yicha</i>)	Mashinatraktorli agregatlarni raqamli loyihalash uchun parametrlarini asoslashning modellari va algoritmlarining dasturiy majmualarini ishlab chiqish.	2024-yil IV chorak
58.	Sun'iy intellektni rivojlantirish departamenti (<i>lavozimi bo'yicha</i>)	HBV infeksiyasidan kelib chiqadigan jigar sirrozi va gepatokarsinomaning erta tashxislash uchun matematik modelini yaratish.	2024-yil IV chorak
59.	Sun'iy intellektni rivojlantirish departamenti (<i>lavozimi bo'yicha</i>)	Axborot xavfsizligi insidentlariga tezkor chora ko'rish va tarmoq trafiklarini filtrlash bo'yicha avtomatlashtirilgan axborot tizimini yaratish.	2024-yil IV chorak
60.	Sun'iy intellektni rivojlantirish departamenti (<i>lavozimi bo'yicha</i>)	"Ziyrak" - neyron tarmoq texnologiyalaridan foydalanib yong'inni aniqlovchi va ogohlantiruvchi dasturiy mahsulotini yaratish.	2024-yil IV chorak
61.	Sun'iy intellektni rivojlantirish departamenti (<i>lavozimi bo'yicha</i>)	Geoaxborot tizimlari va sun'iy yo'ldosh suratlari asosida o'rmon maydonlari va daraxtlar monitoringini olib boruvchi dasturiy mahsulot yaratish.	2024-yil IV chorak
62.	Sun'iy intellektni rivojlantirish departamenti (<i>lavozimi bo'yicha</i>)	Maslahatlar tizimi va monitoring imkoniyatini o'z ichiga olgan erta yoshdagi bolalarning rivojlanish trekeri mobil ilovasini yaratish.	2024-yil IV chorak
63.	Sun'iy intellektni rivojlantirish departamenti (<i>lavozimi bo'yicha</i>)	Detallarga yuqori aniqlikda mexanik ishlov berish jarayonlarini raqamli loyihalovchi dasturiy mahsulot yaratish.	2024-yil IV chorak
64.	Sun'iy intellektni rivojlantirish departamenti (<i>lavozimi bo'yicha</i>)	O'zbekiston Milliy gerbariysi (TASH) fondini raqamli formatga o'tkazish, uni intellektual tahlil qilish va foydalanish uchun veb-platforma yaratish.	2024-yil IV chorak